O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ - БД-60410100
2024-yil “10” 15

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024-yil “__”_____

TARMOQLAR IQTISODIYOTI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410100 – Iqtisodiyot

SAMARQAND-2024

Сканировано с CamScanner

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
TIQ1605	2027-2028	VI	5
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		6

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	Tarmoqlar iqtisodiyoti	64	86	150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – tarmoqlar iqtisodiyoti fanini o’rganishdan maqsad talabalarda xalq xo’jaligining tarmoqlar tarkibi bo’yicha o’zgarib tendensiyasini aniqlab samarali iqtisodiyotni yuritish to’grisidagi bilim va ko’nikmalarni shakllantirishdan iborat. **Fanning vazifasi** – yalpi ichki mahsulot, milliy mahsulot, sof mahsulot, xalq xo’jaligi: sanoat, qishloq xo’jaligi, qurilish, transport, savdo, ommaviy ovqatlanish, aloqa, sog’liqni saqlash, madaniyat, sport kabi xizmatlar sohasini o’rganish. Mamlakat iqtisodiyotidagi xalq xo’jaligining tarkibiy o’zgarishlar tendensiyasini tahlil qilish, tarmoqlardagi o’sish nuqtalarini aniqlab kelajakda samarali iqtisodiy siyosatni talabada shakllantirish asosiy vazifalaridan biridir. Har bir tarmoq iqtisodiyotini mamlakat iqtisodiyotini tutgan o’rni va rolini aniqlash. Aholining turmush darajasiga xalq xo’jaligi tarmoqlarining ahamiyati va mohiyatini aniqlash usullarini o’rgatishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Tarmoqlar iqtisodiyoti fanining predmeti, vazifasi va maqsadi.** Tarmoqlar fani iqtisodchilarni tayyorlashda maxsus fanlardan biri bo’lib u talabalarda tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o’rni va rolini

Сканировано с CamScanner

	bilish imkoniyatini beradi. Fanning predmeti bo'lib alohida tarmoqning maxsus sharoitdagi ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlarining uzviy rivojlanish qonuniyatlaridan iborat. Fanning asosiy vazifalari tarmoqning iqtisodiy jihatdan amal qilinishini, nazariy bilimlarni o'rganish, tarmoqni samarali faoliyat ni amaliy ko'nikmalarni shakllanish bo'lib hisoblanadi. Fanni o'rganishdan maqsad hozirgi zamon sharoitida xalq xo'jaligi tarmoqlarini tashkiliy iqtisodiy jarayonlarni xususiyatlarini o'rganib uni milliy iqtisodiyot tizimdagi roli va o'rnini talabada sjhakllantirishdan iboratdir.
M2	**Milliy iqtisodiyotda tarmoqlar tizimi** Xalq xo'jaligi sanoat, qishloq xo'jaligi, qurulish, savdo, aloqa, transport, maishiy xizmat kabi tarmoqlardan iborat bo'lib yagona mamlakat iqtisodiyotini tashkil etadi. Yalpi ichki mahsulot jamiyat a'zolarining bevosita iste'moliga tasir ko'rsatib turmush farovonligini oshirsa, mahaliy korxona va tashkilotlar bevosita milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga olib keladi. Rivojlangan mamlaktlarga milliy iqtisodiyotning roli tobora ko'proq oshib bormoqda.
M3	**Bozor iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyot.** Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida tarmoqlar iqtisodiyotda muhim rolni egallaydi. Bozor iqtisodiyoti tarmoqlar faoliyatini liberallashtirishga olib kelib ishlab chiqarilgan mahsulotlarni va xizmatlarni chetga sotish imkoniyatini yaratadi. Faqat shundagina milliy iqtisodiyotni rivojlantitib tarmoq raqobatbardoshligini oshirish mumkin.
M4	**Tarmoq va tarmoqlar tizimi.** Tarmoq tushunchasi uni qonunchilik yuzasidan faoliyat yuritishninh huquqiy asoslari. Iqtisodiyotdagi makro-iqtisodiy boshqarish zaruryati, xalqaro standartlar asosida mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqarish talabini bajarish zaruriyati. Tarmoqlar tizimi iqtisodiyotni umumlashgan formasi bo'lib, mavjud resurslardan samarali foydalangan holda mamlakat iqtisodiyotini yagona tizim sifatida rivojlantirish. Iqtisodiyot tarmoqlari ijtimoiy-mexnat taqsimoti natijasida vujudga keladi.
M5	**Iqtisodiyot tarmoqlarining o`zaro bog`liqligi.** Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Agar sanoat korxonalari xalq iste'moli tovarlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullansa u boshqa tarmoqlarni ishlab chiqarish vositalari, jixozlar va materiallar bilan ta'minlasa qishloq xo'jalik tarmog'i esa nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradi balkim sanoat korxonalarini ham xom-ashyo bilan ta'minlaydi. Qurilish sohasi xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga bino inshoatlar qurib beradi. Maishiy xizmat: transport, savdo, aloqa kabilar bevosita

Сканировано с CamScanner

	aholiga xizmat ko'rsatish bilan birga xalq xo'jaligi tarmoqlariga ham bevosita xizmat ko'rsatadi.
M6	**Xo`jalik faoliyatini yurituvchi subyektlarning iqtisodiy asoslari.** Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yurutiladi. Mavjud qonunnchilikga asosan xo'jalik faoliyati bilan davlat korxonalari jaoatchilikga asoslangan mulkchilik formalari va alohida shaxslar xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin. Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan faoliyat (mudofa, ekologiya, ichki tartib o'rnatish organlari kabilar) turlarida xo'jalik faoliyatini yurituvchi subyekt davlat, korxona va tashkilotlari bo'lsa xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlarida yuridik va jismoniy shaxslar xo'jalik faoliyatini yurituvchi subyektlar bo'lishi mumkin.
M7	**Sanoat iqtisodiyoti.** Sanoat tarmog'i har bir mamlakatning iqtisodiyotida asosiy o'rinni egallab kelmoqda. Sanoat korxonalari asosan A va B guruhdagi tovarlarni ishlab chiqaradi. A guruhi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chhiqarish. B guruhi xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish. Rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalari milliy iqtisodiyotda yetakchilik qilib kelmoqda.
M8	**Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti.** O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi sanoatdan keyin ikkinchi o'rinni egallab mamlakat agrar xarakterga ega bo'lib hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida aholiga oziq-ovqat tovarlarini yetkazib berish bilan birga sanoat korxonalariga xom-ashyo yetkazib beradi. Qishloq xo'jaligi o'z navbatida chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlariga bo'linadi. Mulk formalariga qarab davlat tashkilotlariga, fermer xo'jaliklari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqariladi.
M9	**Kapital qurilish iqtisodiyoti.** Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida bino va inshootlarni asosan kapital qurilish tashkilotlari tomonidan qurib beriladi. Bu soha qurulishda mutahasislashgan tarmoq bo'lib u har bir iste'molchining, mintaqaning va sohaning xususiyatidan kelib chiqgan holda ob'yektni jaxon standartlariga mos ravishda malakali qurib berishga ixtisoslashgandir. Kapital qurilish iqtisodiyotning real poydevoridir.
M10	**Transport iqtisodiyoti.** Hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotini transport xizmatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Transport xizmatlari turiga, joyiga qarab bir nechta guruhlarga bo'linadi. Suv, temiryo'l, havo, avtomobil transport xizmatlari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida yuk tashish va aholiga xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanadi. Transport xizmatining istemolchisi o'zining joylashgan manzili faoliyat turi bilan

Сканировано с CamScanner

	shug'ullanishi, istemolchisining mavjudligi kabi xususiyatlariga qara, transport turlari xizmatidan foydalandi.
M11	**Aloqa xizmatlari iqtisodiyoti.** Informatsion texnologiya yildan yilga aholining turmush darajasiga va iqtisodiyotga tasiri bevosita ortib bormoqda. Aloqa, internet, komunikatsiya, informatsiya qidiruvi kabilar kundalik ehtiyojga aylanib bormoqda. Inson kapitali, biznes muhit, davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash, madaniyat, ta'lim kabilarni aloqa vositalrisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish reytingi bevosita iqtisodiyotni rivojlanishiga bog'liqdir.
M12	**Savdo iqtisodiyoti.** Takror ishlab chiqarish jarayonida ayri boshlash vazifasini bevosita savdo tashkilotlari bajarib kelmoqda. Savdo xizmatlari ishlab chiqaruvchi va istemolchi o'rtasida vositachi bo'lib, xalq istemoli tovarlari va maishiy-xizmatlarni yetkazib beruvchi vositachidir. Aholi tovarlarni savdo, ommaviy ovqatlanish va dehqon bozorlari orqali harid qilib istemol qiladi.
M13	**Ommaviy ovqatlanish iqtisodiyoti.** Ommaviy ovqatlanish xizmatlari boshqa tarmoqlardan farqli o'laroq birdaniga 3 ta funksiyani bira to'la bajaradi. Bular ishlab chiqarish, sotish vs istemolni tashkil qilish. Ovqatlanish xizmatlari sanoat korxonalariga o'xshab oziq-ovqat mahsulotalari ishlab chiqaradi. Savdo korxonasiga o'xshab mahsulotchiga sotadi. Faqatgina ovqatlanish korxonalariga xos bo'lgan funksiya istemolini ishlab chiqarish joyida tashkil etadi. Ommaviy ovqatlanish korxonasining ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati roli yildan yilga oshib boradi.
M14	**Ijtimoiy soha iqtisodiyoti.** Ijtimoiy soha o'z ichiga ta'lim, sog'liqni saqlash, uy komunal xo'jaligini yuritish, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta, nafaqa ta'minoti, madaniyat, sport kabilarni o'z ichiga olib, aholining ijtimoiy xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Ijtimoiy soha aksariyat hollarda davlat tomonidan, ayrim sohalarda esa iste'molchilarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Hozirgi kunlarda ijtimoiy sohalarning nafaqa ta'minotini nodavlat formalari ham shakllantirilgan. Maktabgacha ta'lim sohlarisida esa davlat xususiy sherikchilikm asosida xo'jalik faoliyatini yuritish ham keng qo'llanilmoqda.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
A1	Tarmoqlar iqtisodiyoti fanining predmeti, vazifasi va maqsadi
A2	Milliy iqtisodiyotda tarmoqlar tizimi
A3	Bozor iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyot

Сканировано с CamScanner

A4	Tarmoq va tarmoqlar tizimi.
A5	Iqtisodiyot tarmoqlarining o`zaro bog`liqligi.
A6	Xo`jalik faoliyatini yurituvchi subyektlarning iqtisodiy asoslari.
A7	Sanoat iqtisodiyoti.
A8	Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti.
A9	Kapital qurilish iqtisodiyoti.
A10	Transport iqtisodiyoti.
A11	Aloqa xizmatlari iqtisodiyoti.
A12	Savdo iqtisodiyoti.
A13	Ommaviy ovqatlanish iqtisodiyoti.
A14	Ijtimoiy soha iqtisodiyoti.

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Tarmoqlar iqtisodiyoti fanining predmeti, vazifasi va maqsadi
2.	Milliy iqtisodiyotda tarmoqlar tizimi
3.	Milliy iqtisodiyot va uni rivojlantirish indikatorlari.
4.	Milliy iqtisodiyot va uning samaradorlik ko`rsatgichlari
5.	Tarmoq tushunchasi, mohiyati va ahamiyati.
6.	Harxil tarmoq korxonalarini joylashtirish tamoyillari, omillari va rivojlantirish qonuniyatlari.
7.	Iqtisodiyoti tarmoqlarining integraciyasi.
8.	Klasterlar.
9.	Korxona resurslari va ularning samaradorligi.

Сканировано с CamScanner

10.	Tarmoq daromadlari, xarajatlari, foyda va rentabelligi.
11.	Sanoat tarmoqlarining tasnifi va tarkibi.
12.	Sanoatning rivojlanish ko`rsatgichlari.
13.	Qishloq xo`jaligi tarmog`ining xususiyatlari.
14.	Qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyoti.
15.	Mamlakat iqtisodiyotida qurilishning roli.
16.	Qurilish tarmog`ini rivojlanish ko`rsatgichlari.
17.	Transport tarkibi va holayati.
18.	Logistika ko`rsatgichlari.
19.	Aloqa xizmatlari tavsifi.
20.	Aloqa xizmatlarini rivojlantirish ko`rsatgichlari.
21.	Savdo turlari va ularning xususiyatlari.
22.	Savdoning rivojlanish ko`rsatgichlari.
23.	Ommaviy ovqatlanish korxonalarining xususiyatlari.
24.	Ommaviy ovqatlanishning ko`rsatgichlari.
25.	Ijtimoiy sohaning mohiyati va ahamiyati.
26.	Ijtimoiy sohaning moliyaviy xo`jalik faoliyati.
27.	Bozor iqtisodiyot sharotida milliy iqtisodiyot.
28.	Tarmoq va tarmoq tizimi.
29.	Iqtisodiyoti tarmoqlarining o'zaro bog'liqligi
30.	Xo'jalik faoliyatini yurituvchi subyektlarning iqtisodiy asoslari.
31.	Sanoat iqtisodiyoti.
32.	Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti
33.	Kapital qurilish iqtisodiyoti.
34.	Transport iqtisodiyoti.

Сканировано с CamScanner

35.	Aloqa xizmatlari iqtisodiyoti
36.	Savdo iqtisodiyoti.
37.	Ommaviy ovqatlanish iqtisodiyoti.
38.	Ijtimoiy soha iqtisodiyoti.
39.	Milliy iqtisodiyotni shakllantirishda tarmoqlarni o'rni va roli.

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari faning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada iqtisodiy bilim ko'nikma hamda bilimlarni shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Tarmoqlar nazariyasi faning iqtisodiy qonunlar,kategoriyalar,ijtmoiy-iqtisodiy munosabatlar,iqtisodiy tizimlar va ularni amal qilishi haqidagi muammolarni obyektiv tarzda ochib berish ko'zda tutiladi. Keltirilgan mavzular bo'yicha talabalar olib borayotgan tatqiqotlar, milliy iqtisodiyotning dolzarb muammolariga qaratlib talabalar tomonidan amaliy ishlashni talab etib bu hol ularda iqtisodiyot amaliyotida amaliy ko'nikmalarni, to'g'ri iqtisodiy fikirlashni shakillanishiga sabab bo'ladi. Bu holat **mustaqil ta'limda** nazarda tutilgan mavzular doirasida talabalar ish olib borishadi. Fan bo'yicha mustaqil ta'limda talabalar yuqorida keltirilgan mavzulardan tashqari o'z xoxishlariga ko'ra boshqa mavzudagi muammolarni ochib berish imkoniyatiga ega. Fan bo'yicha tavsiya etilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida keltirilgan.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Tarmoqlar iqtisodiyotining mohiyati va mazmuni, nazariy asoslarini, tarmoqlar yo'nalishlarining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, rejalashtirish, tahlil etish, milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlari; tarmoqlar ko'rsatkichlari va ularning mohiyati; tarmoqlar yo'nalishlarining amal qilish xususiyatlari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Tarmoqlar xususiyatlari, ixtisoslashtirish, kooperatsiyalashtirish kategoriyalari, tarmoqlar sohalari bo'yicha muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • Talaba iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish; iqtisodiy muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plash va ulardan foydalanish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • elektron materiallar • keys-texnologiyalar

Сканировано с CamScanner

	• vizual, muammoli, mualliflik ma'ruzalari, ikki tomonlama tahlil, Insert, klaster, «Venna», sinkveyn va boshqalardan foydalanish
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

1. Axmedov D.Q., Ishmuxamedov A.E., Jumayev Q.X., Djumayev Z.A. Makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg'armasi nashriyoti», 2004
2. Djumayev Z.A. "Makroiqtisodiyot" fanidan O'quv-uslubiy majmua.- Toshkent: Iqtisodiyot.-2010 y.
3. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q. X. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. Abel E., Bernake B. Makroekonomika. Uchebnik. 5-ye izd.-SPb.:Piter, 2009
5. Agapova T.A., Seregina S.F. Makroekonomika. Uchebnik. M.: «Delo i Servis», 2005.
6. Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Makroekonomika; Uchebnik dlya vuzov. SPb.: Piter, 2009.
7. Dornbush R. "Macroeconomics" - Boston. Mcgraw-Hill, 2001.
8. Kiselyova Ye.A. Makroekonomika: Kurs leksiy. M: Izd-vo Eksmo, 2007.
9. Menkyu N.G. Prinsipы makroekonomiki. Uchebnik. SPb.: Piter, 2009.
10. Samuelson, Pol E., Nordxaus, Vilyam D. Makroekonomika. Uchebnoye posobiye. M.: OOO «I.D. Vilyams», 2009.
11. Tarasevich L.S., Grebnikov P.I., Lusskiy A.I. Makroekonomika: Uchebnik. M.: Vыssheye obrazovaniye», 2006.

Axborot manbalari (saytlar):

1. http:// www.lex.uz
2. http://www.mineconomi.uz.
3. http://www.mf.uz
4. http://www.stat.uz
5. http://www. soliq.uz
6. http://www.cbu.uz
7. http://www.wordbank.org.

7	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Сканировано с CamScanner

8	**Fan/modul uchun mas'ullar:** 1. A.M.Amirov – SamDU, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti 2. S.L.Alibekova – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, i.f.n.
9	**Taqrizchilar:** 1. B.Bozorov – SamDU, "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi, iqtisodiyot fanlari nomzodi (ichki). 2. Sh.A.Sultonov – SamISI, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi (tashqi).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **A.N.Nizamov**

Institut direktori: **Sh.D. Djurakulov**

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Сканировано с CamScanner

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti A.M.Amirov tomonidan tuzilgan "Tarmoqlar iqtisodiyoti" fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturida tarmoqlar doirasidagi iqtisodiy faoliyat va ularning samaradorlik, raqobatbardoshlik hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarga bag'ishlangan mavzular qamrab olingan. Talabalarga tarmoqlar iqtisodiyotining mohiyati asoslari, nazariy tushunchalari va kategoriyalarini, rejalashtirish, tahlil etish to'g'risida tegishli tasavvurga ega bo'lishlari lozim.

O'quv mashg'ulotlardagi asosiy vazifa talabaning o'qish jarayonidagi o'zlashtirish qobiliyatini oshirish, talabada innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanishni ham nazariy, ham amaliy tomonlarini, iqtisodiyot sub'ektlarning faoliyatini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga amaliy yordam beradi.

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" fanini o'rganishda qo'llaniladigan ilg'or ta'lim texnologiyalarni va metodlarini qo'llagan holda, o'quv jarayonlarini takomillashtirish nazarda tutilgan. Talabaning ushbu fanni mukammal o'rganib olish uchun qo'yilgan talablar ushbu dasturda o'z aksini topgan.

Fanni o'zlashtirish jarayonidagi zarur bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ham keltirilgan. Ayrim mavzularni o'rganish jarayonida kafedra a'zolarining metodik, me'yoriy hujjatlari va qo'llanmalari foydalanish uchun tavsiya etilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oso'nggi qonun- qoidalar, axborot manbalari (saytlar) tavsiya etilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" fanidan tuzilgan fan dasturi kafedrada muhokama qilingan ichki taqriz mavjud, fakultetning o'quv uslubiy kengashida muhokama qilinib o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etiladi.

SamDU "Inson resurslarini boshqarish"
kafedrasi dotsenti,i.f.n. **Bozorov B.U.**

Сканировано с CamScanner

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish fakulteti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti, mas'ul A. M. Amirov tomonidan tuzilgan "Tarmoqlar iqtisodiyoti" fan dasturiga

TAQRIZ

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" fan dasturida iqtisodiyotning turli tarmoqlari faoliyatining asosiy jihatlari chuqur va har tomonlama ko'rib chiqilgan. Usbu fan dasturida energiya, transport, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari va boshqalar kabi muhim tarmoqlari qamrab olingan. Dasturning har bir moduli muayyan tarmoqlar strukturasi va dinamikasini batafsil tahlil qilishni taklif etadi, bu esa talabalarga tarmoqlar iqtisodiyotining tabiati va boshqaruvidagi farqlarni yaxlit tushunishga yordam beradi.

Fan dasturning asosiy afzalligi uning fanlararo yondashuvidir. Kurs davomida o'rganilgan iqtisodiy nazariyalar va modellar real ishlab chiqarish tarmoqlariga tatbiq etiladi, bu esa nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Masalan, sanoat tarmoqlari mavzusini o'rganishda talabalar bozor raqobati, tartibga solish va innovatsion rivojlanish masalalarini o'rganadilar, bu esa sanoatning muvaffaqiyati va barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillarni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Fan dasturida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ta'sir etuvchi global va mahalliy tendentsiyalarni o'rganish ham ko'zda tutilgan bo'lib, bu globallashuvning zamonaviy sharoitida ayniqsa dolzarbdir. Raqamlashtirish, yashil iqtisodiyot va global savdo shakllaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq mavzular har bir modulda yoritilgan bo'lib, talabalarga zamonaviy dunyoda turli iqtisodiy tarmoqlar duch kelayotgan muammolarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, Ushbu Fan dasturi va o'quv ishchi dasturlarida keltirilgan mavzular "Iqtisodiy siyosat" faniga mos keladi va undan talabalarni o'qitishda foydalanish mumkin.

SamISI dotsenti i.f.n. **Sultonov Sh.A.**

IMZONI TASDIQLAYMAN
SamISI
KADRLAR BO'LIMI B'OSHLIG'I

Сканировано с CamScanner